

Бахшилар нафақат халқ ўтмишининг акс-садоси, айна пайтда бугунги куннинг ҳам жарангдор овозидир.

Шавкат МИРЗИЁЕВ

O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

1925-YILDAN SHIQA BOSHLAGAN

Biz — kelajak bunyodkorimiz!



YOSHLAR OVOZI

№28 (16333) 2019-YIL 7-APREL, YAKSHANBA O'zbekiston yoshlar ittifoqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazetasi www.yoshlarovozi.uz yoshlarovozi@umail.uz @Yoshlarovozi

ДУНЁ БАХШИЛАРИ НАВОЛАРИ АМУДАРЁ УЗРА ТАРАЛМОҚДА

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ ШАВКАТ МИРЗИЁЕВНИНГ ХАЛҚАРО БАХШИЧИЛИК САНЪАТИ ФЕСТИВАЛИ ОЧИЛИШИГА БАҒИШЛАНГАН ТАНТАНАЛИ МАРОСИМДАГИ НУТҚИ

Мухтарам фестивал иштирокчилари! Қадри дўстлар!

Хонимлар ва жаноблар! Аввало, сиз, азизлар билан жонажон Ўзбекистонимизда, гўзал Сурхондарё заминидан қуришиб турганимдан бахтиёрман.

Барчангизни Халқаро бахшичилик санъати фестивалининг тантанали очилиши билан чин юракдан муборакбод этаман.

Юртимизда биринчи бор ўтказилган ушбу санъат байрамида дунёнинг 74 та давлатидан 160 дан зиёд вакиллар катнашмоқда. Уларнинг орасида атоқли маданият арбоблари, фольклор санъати намояндалари, оммавий ахборот воситалари ходимлари борлиги бизга катта мамнуният етказди.

Бугунги фестивалимизда иштирок этаётган хурматли меҳмонларимиз: ЮНЕСКОнинг Осиё ва Тинч океани бошқармаси бошлиғи Андрей Шевелева, Ислон ҳамкорлик ташкилотининг тузилмаси — АЙСЕКОнинг Маданият бўйича директори Рихати Салихга, Жаҳон хунармандлар кенгаши Осиё ва Тинч океани минтақаси раҳбари Гада Рида Хишавига, Қирғиз Республикаси Президентининг маслаҳатчиси Султанбай Раева, Қозғистон Республикаси маданият ва спорт вазири Аристанбек Мухамеътуллога, Тожикистон Республикаси маданият вазири Шамсиддин Орумбековга, Туркменистон маданият вазири ўринбосари Курбанмурат Мирадалиевга, Афғонистон Ислон Республикасининг Балх вилояти ҳокими Муҳаммад Исҳоқ Рахгузар ва бошқа хоржий дўстларимизга чуқур ташаккур изҳор этишга ижозат бергайсиз.

Сиз, мухтарам меҳмонларимизни биз халқимиз ва маданиятимизнинг яқин дўстлари сифатида қабул қиламиз. Бутун эл-юртимиз номидан барчангизга самимий хурмат ва эҳтиромимизни билдирамиз.

Ўзбекистонга хуш келибсизлар! Азиз дўстлар! Инсоният яратган бебаҳо маданият дурдоналари энг аввало ҳар қайси миллатнинг фольклор санъатида мужассам топгани ҳаммамизга яхши маълум. Турли халқларнинг миллий ўзлигини, уларнинг тили ва ҳаёт тарзини, анъана ва урф-одатларини ифода этадиган бахшичилик санъати умумбашарий маданиятнинг узвий қисми сифатида барчамиз учун қадриlidir.

Жаҳон маданий меросининг бу ўлмас асарлари бизга инсониятнинг наслу насаби, тарихий илдишлари, олижаноб идеаллари бир эканини, бинобарин, турли миллат ва элат вакилларининг келажак сари интилишлари ҳам муштарак эканини аниқлатади. Айна вақтда ҳозирги глобаллашув даврида, тижорат воситасига айланган “оммавий маданият”, шоу-бизнеснинг салбий таъсири тобора кучайиб бораётган мураккаб замонда ҳар қандай миллий маданиятнинг бўлоғи бўлган фольклор санъатига эътибор ва қизиқиш, афсуски, сувайиб бораётгани ҳам сир эмас. Ҳолбуки, фольклор санъати, таъбир жоиз бўлса, бу — инсониятнинг болалик кўшиғидир.

(Давоми 2-саҳифада)



Термиз шаҳрида 6 апрель куни Халқаро бахшичилик санъати фестивалининг тантанали очилиш маросими бўлиб ўтди

Жаҳон тамаддуни бешиқларидан бири бўлган қадимий Термиз миллий руҳда байрамона безатилинган. Нафақат мамлакатимиз, балки бутун дунёда илк марта ўтказилган Халқаро бахшичилик санъати фестивалига пухта ҳозирлик қўрилган. Ўзбекистоннинг жанубдаги гавҳари бўлган қадимий ва навқирон ушбу шаҳарга ўзгача шукух ва тароват бағишлаган.

Сўлим бог-роғлар, хиёбонлар, кўча ва майдонларда қадимда шаклланиб, асрлар давомида сайқал топган миллий қадрият ва урф-одатларимиз, бахшичилик санъати сиймоси акс этган ланолар ўрнатилган. Жаҳоннинг турли минтақаларидан келган меҳмонлар юзлаган кўчани ҳам самимий муносабат Сурхондарё воҳасида миллий ўзлигимизни кенг намойён этадиган, дунё халқларини қадим қадриятларни улуғлашга қорлайдиган, ягона мақсад, ягона маслак сари бириктирилган улуғ байрам бошлаётганидан ларак беради.

Асрлар давомида ҳаётнинг турли синовларидан ўтган бу қадимий юртининг юксалиш йўлларига гувоҳ бўлиб келаётган Амударё бўйига окшом чўқди. Мухташам Санъат саройи худудидagi 32 гектарлик майдонда Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри ва барча вилоятларнинг ўтмишдаги турмуш тарзи ҳамда бугунги оқо ва фаровон ҳаёти ўз ифодасини топган этнографик шаҳарча барпо этилган.

Шаҳарчадаги мўъжаз сахналарда театрлаштирилган томошалар, фольклор-этнографик жамоаларининг чиқишлари намойиш этилмоқда. Хорижий сайёҳлар хунармандлар кўргазма-ярмаркаларида қадимий сўзана ва либослар, гиламлар, миллий чолгулар, сопол буюмлар намуналари билан танишиш, юртимизнинг туризм салоҳиятига бағишланган меҳмон уйларида онлавий маросимларни кўриш имконига эга бўлади.

Президентимизнинг 2018 йил 1 ноябрдаги “Халқаро бахшичилик санъати фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги қарори ва ушбу санъат анжуманини Термиз шаҳрида ўтказиш борасидаги ташаббусидан кейин вилоят марказида киска фурсатда улкан ишлар амалга оширилди. Жумладан, 80 миллиард сўмдан ортиқ маблағ эвазига Термиз аэропортининг янги биноси қурилди. Термиз темир йўл вокзали тубдан таъмирланиб, меҳмонлар учун янада қулай шарт-шароит яратилди.

Икки йилда бир марта ташкил этиладиган фестивалининг асосий тадбирлари ўтказилган Санъат саройи худудига замонавий йиғма сахна барпо этилиб, кенг майдонга халқимизнинг улуғ маънавий обидаси — “Алпомиш” дostonи шарафига муазам ҳайкал ўрнатилди. Соат 18.40. Термиз, мухташам Санъат саройи майдони. Маҳобатли амфитеатр теғрасида

ДҮМБИРА

Дўмбира, жонимнинг томири, Отамсан, оғамсан, эгачим. Кўнглимни қулдириб, қуйдириб, Кўнглимни энамдай билгичим.

Дўмбира, момолар соғинчи, Ғамига эш бўлган тилимсан. Дўмбира, Ойбарчин севиңчи, Алпомиш қайтғучи йўлимсан.

Дўмбира, бир қулоч қув оғоч, Бир кам дунёни тўлдирдинг. Танимга руҳимни муҳраб, Сўнг яна қайтадан ўлдирдинг.

Дўмбира, қўш торинг қўшилса, Кўнглимнинг камлари тўлғайди. Оламга қўшиқдай сочлган, Кўнғирот йиғилиб келгайди.

Дўмбира, юрагим наққоши, Бир жонни минг чоғга ташлайсан. Жамик қадригини жамласан, Дўмбира, Ватанга ўхшайсан.

Хўв, бадар қарвонлар қайтгандай, Юракнинг черлари кетгандай, Қўш торинг қўшилиб айтгандай, Дўмбира, Ватанга ўхшайсан.

Дўмбира, кўнглимнинг ховури, Дўмбира, руҳимнинг шовури, Дўмбира, вобанлар қўлида Номуси — юкиннинг оғири.

Шодмонқул САЛОМ

иштирокчи давлатлар байроқлари хилпирайди. Саҳна ортида ўзига хос декорацияда қад кўтарган Қўхитанг тоғлари бизни ҳаёлан Алпомиш замонага етаклайди.

(Давоми 2-саҳифада)

Шомирза ТУРДИМОВ, филология фанлари доктори:

— Халқимизда “Бахши эл — ботир”, деган нақл бор. Бу ҳикмат бахшиларнинг жамиятда эгалланган мақомига ишора сифатида айтилган.

Ҳақиқатдан ҳам эл-улус олдида бахшилар доимо қадрланган, уларга ҳурмат-эътибор кўрсатилган. Давлатимизнинг алоҳида сый-ҳаракати туфайли бундай эътибор бугун ҳаққоний эътирофга айланди.

Аслида бахши оддий ижрочи эмас. У — ижодкор. Бахшилар дostonларни фақат ёддан айтиш билан чекланмайди. Улар ўзларидан кейин устоз даражасига ета оладиган кучли шоғирларни тарбиялайди, бошқача айтганда, ирмоқларни бирлаштириб жўшқин дарёга айлантиради.

Халқаро бахшичилик санъати



фестивали ҳамда унинг доирасида ўтаётган конференция, кўргазма ва бошқа тадбирлар фольклор ҳаёти-мизда нечоғлиқ муҳим ўрин тутишини, умуман олганда, Марказий Осиё халқлари учун эпик ижод жонли ҳодиса эканини яққол кўрсатмоқда. Аслида бу жуда ноёб ҳолат! Дунёга кўз-кўз эта оладиган жиҳатларимиздан бири ҳам шу.

Азамат ҲАЙДАРОВ, Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирининг масъул ходими:

— Сўнгги йилларда мамлакатимизда маданият ва санъатга эътибор анча кучайди. Биргина Президентимиз томонидан шу соҳалар ривожини йўлида ўттизга яқин қарор ва фармон қабул қилинганининг ўзи кўп нарсани аниқлатади. Фахр билан айта оламаники, пировард натижада рўй бераётган янгилик ва янгиликлар нафақат Ўзбекистон, балки бутун жаҳон маданий ҳаётига катта таъсир кўрсатмоқда.

Давлатимиз раҳбарининг ташаббуси билан деярли унутилиб бораётган бахшичилик мактаблари қайта жонланмоқда. Масалан, Термиз шаҳрида бахшилар мактабининг очилгани тарихий воқеа



бўлди. Мана энди, болалар мусика ва санъат мактабларида бахшилар синфлари ҳам ташкил этиляпти.

Ҳозир ўзбек дўмбирсининг овози етти оламни тугган. Бундан фахрланмай бўладим, ахир?! Бахшичилик санъати миллатимизнинг бақувват илдиши. Ундан куч олган халқ, шак-шубҳасиз, юксалади.

Нодир ЖОНУЗОҚ, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раиси ўринбосари:

— Ўзбек фольклорига назар ташласак, халқимизнинг миллий киефасини кўргандек бўламиз. Ўтган асрда бу бебаҳо меросимизга қанчалаб чеклов ва таққилор қўйилгани барчамизга маълум. Шунга қарамай, зиёлиларимиз хамиша халқ озғани ижодини сақлаб қолишга интиланган.

Масалан, Ҳамид Олимжон ўта таққилли вазиятда атоқли бахши Фозил Йўлдош ўғли тилидан “Алпомиш” ва бошқа халқ дostonларини ёзиб олганди. Кейинчалик бир қанча фольклоршунос олимлар катта-катта бахшилар айтган ўланларни қозғога туширган.

Глобаллашув даврида турли маданиятлар бир-бирига таъсир кўрсатиши натижаида ёшларимиз улкан маънавий хазина — халқ озғани ижодидан йироқлашиб боришти. Мазкур ҳолат бутун умрини ижодга бағишлаган бахши устозларини ҳам ташвишга солаётганди, албатта. Шундай пайтда Халқаро бахшичилик санъати фестивалининг ўтказилиши ҳақида хушхабар тарқалди. Бу эса, фольклорга бефарқ бўлмаган, уни ардоқлаб келаётган қанчалаб



юртдошларимизнинг қувончига-қувонч қўшгани аниқ.

Халқаро бахшичилик санъати фестивали фақат фольклорга алоқадор инсонларнинг байрами эмас. У — халқнинг байрами. Чунки бахши қуйлаётган дostonларда ўзбекининг тарихи, бугуни, эртаси акс этади. Ўйлаيمانки, бугунги байрам тадбири миллат сифатида яшаб қолиш, турфа маданиятлар орасида ўзига хос киефамизни йўқотмасликнинг асосий шартини бўлиб қолади.

ЁШ ТАДБИРКОРЛАР САФИ КЕНГАЙМОҚДА



2-саҳифада

МИЛЛАТИН ҒАМИН ЕГАН ҲУҚМДОР



3-саҳифада

БАЛОҒАТ ДАВРИ МАНЗАРАЛАРИ



4-саҳифада

9-APREL — AMIR TEMUR TAVALLUD TOPGAN KUN

МИЛЛАТИН ҒАМИН ЕГАН ҲУКМДОР

**Амир Темурнинг муҳри узугида “Рости-русту”,
яъни “Ҳақгўй бўлсанг, нажот топасан” деган
маънони англатувчи ҳикмати ҳамда салтанат
шиорига айланган “Мамлакат зулмга чидаши
мумкин, аммо адолатсизликка чидай олмайди”,
деган қатъий тамойили мана етти юз йилдирки,
ўзининг ҳаётбахш қудратини йўқотмай,
авлодларга боқий маърифат, инсофу диёнатдан
сабоқ бериб келмоқда.**

Амир Темур шахсининг улуғворлиги шундаки, у давлатни адолат ва одиллик билан бошқарган. Буни куйидаги ўғитларидан ҳам билиш мумкин: “Давлат ишларининг тўққиз улушини кенгаш, тадбир ва машварат, қолган бир улушини қилич билан бажо келтирдим”, “Ҳар мамлакатда адолат эшигини очдим, зулму ситам йўлини тўсдим”, “Салтанатининг учетидан бу четига бирор болакай бошида бир лаган тилла кўтариб ўтадиган бўлса, бир донасига ҳам зарар етмайдиган тартиб-интизом ўрнатдим”.

Амир Темур халқ саломатлигига эътибор қаратиб: “...касаллар учун шифохона курдирсинлар ва уларда ишлаш учун табиблар тайинласинлар. Ҳар бир шаҳарда дор ул-аморат (ҳукмдор саройи) ва дор ул-адолат (қозихона) курсинлар”, — дея фармон чикарганди.

Шунингдек, мамлакат аҳолисини турмуш фаровонлигини янада ошириш, саломатлигини асраш, бир сўз билан айтганда, мамлакат ҳудудида экомухитни яхшилаш мақсадида сўлим боғу роғлар барпо этишга эътибор қаратиб, кўкаламзорлаштириш ишларини ўзи назорат қилган. У доимо “Хон бўлсанг-да, боғ ярат, гайдай бўлсанг-да, боғ ярат!” тамойилига амал қиларди.

Тажрибали соҳибкорларнинг ақл-заковати, меҳнатно маҳорати билан барпо этилган Боғи Дилқушо, Боғи Чинор, Боғи Бехишт, Боғи Баланд, Давлатобод, Боғи Нав, Боғи Шамол, Боғи Жаҳоннамо, Боғи Майдон каби чорбоғлар ва улардаги гўзал кўшклар ўша давр боғдорчилик санъатининг бетақор намуналари бўлиб қолди.

Амир Темур салтанатда маънавий-ахлоқий қондаларга риоя қилишини ҳам қатъий талаб қилган. Ҳатто вазирларни-да аямаган. Вазирларининг бирини, гарчанд у ўз ишини сидқидилдан, маҳорат билан бажариб келаётган бўлса-да, масжид олдига ўтирган қарияларга отдан тушиб салом бермагани учун

лавозимдан озод этган. Бошқа бир амалдорни эса, қабристондан отда ўтаётиб, Куръон тиловат қилмагани туғайли: “Фаолиятингиз эгаллаб турган мансабингиз доирасидан жуда пасайиб кетди”, — дея вазифасидан бўшатган.

Темур манманлик, бировларни менсимаслик, айниқса, лавозимни сунистеъмол қилиш мамлакатни пароканда қилишини яхши англаган. Шунинг учун вазирларни тайинлашда тўрт сифатга эътибор қаратган: тоза насли, ақл-заковати ва фаросати, сипоҳу раянтдан хабардорлиги ҳамда уларга хушмуомалалиги, сабр-тоқатли ва тинчлик-севарлиги.

Соҳибқирон ҳадиси шарифларда келтирилган “Олимлар пайгамбарларнинг издошларидир”, деган ақидага доимо амал қилиб яшаган. Буни унинг давлат ишларини бошқаришнинг тўққиз улушини кенгаш, машварат ва маслаҳат билан бажо келтирганидан ҳам билса бўлади. Темур харбий юришлари, давлат бошқарувида доир ишлари,

насини янада бойитиш ҳамда фаолиятини юритишга зиёли кишиларни жалб қилган. Манбаларда Соҳибқирон сарой кутубхонасига доруға (китобдор) сифатида Мавлоно Ориф Бухорийни тайинлагани ҳақида айтылади. Муаррихлар Амир Темур сарой кутубхонасидати тарихий китоблар, айниқса, Мовароуннахрнинг марказий шаҳарлари — Бухоро ва Самарқанд тарихига оид рисолалар билан қизикканини эътироф этади.

Соҳибқироннинг Бухорои Шарифга алоҳида хурмат кўрсатганини XIV асрдан буён тилдан-тилга ўтиб келаётган куйидаги ривоятдан ҳам англаш қийин эмас.

Амир Темур 1387 йили Шероз шаҳрини забт этгач, ўша ернинг энг забардаст шоири бўлмиш Ҳофиз Шерозийни хузурига чақиртириб, унга куйидаги ғазалини эслатади:

**Агар он турки Шерози ба даст орад дили маро,
Ба холи ҳиндуяш бахшам Самарқанду Бухоро.**

Яъни:



элчилик қабуллари ҳамда машваратларини махсус йилномачиларга ёзиб боришни буюрган. Ҳатто уларнинг кундалик дафтари қанчалик тўғри юритилаётгани, барча маълумотлар батафсил ёзилганини назорат қилган.

Амир Темур салтанат кутубхо-

**Агар кўнглимни олсайди ўшал Шероз жонони,
Кора холига бергумдир Самарқанду Бухорони.**

“Ҳофиз” тахаллуси билан ижод этган Шерозий бу байтда Амир Темур бутун умри давомида куч-гайратини ишга солиб, обод қилган Са-



марқанд ва Бухоро шаҳарларини ўзи суйган жонининг бир дона қора холига алмаштиришга тайёр экани Соҳибқиронни дарғазаб этади. Темур шоирни дарҳол топиб келишларини буюради. Ёши олтишлардан ошган, эғнига жанда кийган шоирни шох хузурига олиб келишганида, у Шерозийга ўта юмшоқ оҳангда:

— Мен Самарқанду Бухоронинг донгини ёйиш учун қанча мамлакатни жавоб қилгани Амир Темурга қандайдир бир жонининг битта холига алмашсанг! Бунга қандай ботиндинг? — дейди.

— Эй Соҳибқирон! — дебди бунга жавобан шоир. — Эгнимдаги жандама кара! Шу абор аҳвол мени охири шу кўйга солиб қўйди-да!

Шерозийнинг Соҳибқирон олдига ўзини йўқотмай, ҳазил билан ҳаққоний жавоб қилгани Амир Темурга хуш келиб, шоирга инъом-иноятлар туҳфа этган экан.

Юқоридаги мисолдан кўриниб турибдики, бобомиз Самарқанд билан бир қаторда, Бухоронинг ҳам обрўй-мавқеи, шухратини кўтариш учун катта хизматлар қилган.


Амир Темур нафақат халқига, балки фарзандлари ва невараларига ҳам муруват кўрсатарди. Хусусан, Соҳибқирон Боғи Бехишт саройи ва боғини суюкчи ворисларидан бири Мироншоҳнинг қизига ҳадя қилган бўлса, мўғуллар томонидан вайрон этилган Сирдарё соҳилидаги Баноқатни қайта тиклаб, кенжа ўғли шарафига Шохрухия деб номлайди.

Инсондан яхши боғ, масжид ва солиҳ фарзандлар ёлдорлик бўлиб қолади. Шу тўрт фарздан бирини бажарган кишининг номи барҳаёт бўлажак. Алишер Навоий: “Бу жаҳонда абадий қолишини иложи йўқдир, не бахтки, яхши ном билан қолса от”, дея таъкидлаганидек, улуг бобомиз ҳам бунёдкорлик ишлари орқали ўзидан яхши ном қолдиришга интиланган.

Соҳибқирон дунёнинг турли мамлакатлари ҳамда Мовароуннахрнинг ўзидан моҳир меъморлар, қўли гул хунарманд усталарни пойтахт шаҳарини барпо этишдек олижаноб мақсад йўлида бирлаштирди. Уларнинг салоҳияти ва ақл-заковатидан фойдаланиб, ижодига илҳом бағишлаб, бетақор меъморий мўъжизаларини бунёд эттирди.

Йилномалардан аёнки, Соҳибқирон қийишқ қурилатган иморатларни буздирган ва уларни қайтадан бунёд этишга фармон берган. Бу ишларнинг бажарилишини эса, шахсан назорат қилган. Шу ўринда Оксаройнинг қурилиши ҳақидаги бир афсона эсласак.

Сарой қурилишининг дастлабки ишлари тулаши биланок, ҳукмдор бинони тезда рандор, ялтирок қаламалар билан безаш зарурлигини айтиб, “меъморларни” шоширди.



Соҳибқиронга гап қайтаролмаган бош уста марказий гўмбазнинг деворига одам бўйича узунликдаги бир занжирни ерга тегмайдиган қилиб осиб қўйди-ю ўзи қочиб кетди. Бош меъморнинг ўзини боса оладиган бошқа уста топилмагач, Оксарой биносининг бошлангич

қоплама ва безаш ишлари вақтинча тўхтатилди. Орадан икки йил ўтиб, меъмор қайтиб келиб, ўзи осиб кетган занжирни текширганида унинг учи пастга тушганини пайкади. Сўнг Соҳибқирон хузурига бориб, бинога безаш бериш ишларига руҳсат сўрайди. Нима учун қочиб кетгани ҳақидаги саволга бош меъмор: “Агар кетмаганимда бино чўкиб, ўз ўрнида мустаҳкам жойлашмаган бўларди. Икки йил давомида иморат ўз оғирлиги билан чўкиб ва ерга текис жойлашди, энди бемалол безаш ишларини давом эттириш мумкин”, — деб жавоб берган экан.

Амир Темур жоме масжидлар қурилишини ҳам ўз назоратига олган. Қурилиш ишларига ҳатто шахзодалар ва амирларнинг масъул қилиб тайинлаган. Темур саройлари ва бошқа иморатлари мармар тошлардан барпо этилгани сабабли беш юз киши доимий равишда тоғларда тош кесиб, шаҳарга юбориб турган. Самарқанд шу даражада зийнатланганки, уни замондош тарихчилар “Лойдан бўлган Самарқанд тошдан қайта қурилди”, дея таърифлаган.

Шарафиддин Али Яздиннинг “Зафарнома” асарида келтирилишича, Соҳибқирон ўзидан ёлдор бўлсин, деб ихтиёрига қиритган ҳар бир мамлакат ва шаҳарда бир олий иморат барпо қилган. Темурнинг бу фазилатини муаррихлар “Соҳибқирон ҳар ердаким, иморатка қобил эрса кўрса эрди, ул ерда албатта бир иморат солур эрди...”, деб изоҳларди.

Европа олимларининг асарларида: “Амир Темур жонбоз бунёдкор эди, у ажойиб боғ-роғли мухташам иншоотлар барпо этди. У Доро, Исқандар, Цезарь салоҳиятига тенг ёки уларнинг барини ортада қолдирувчи буюк ишларни адо этди”, деган фикрларни учратамиз.

Инглиз таърихчиси Хильда Хукхем ўзининг “Етти иклим султони” номли асарида Амир Темурнинг бунёдкорлигига баҳо бериб: “Амир Темур дунёга келмаганида Хиндистонда буюк империя бўлмаган, Самарқанд ва Бухоро бунчалик гуллаб-яшнамаган бўлар эди. У ўрта аср Осий тарихининг сарчашмасидир”, — деб ёзди.


Гарчанд Амир Темур 69 йил умр кўрган бўлса-да, аммо 69 асрга таълиқ ишларни амалга ошириб, десак, асло муволага бўлмайди.

Аминимизки, бу буюк шахс қолдирган моддий ва маънавий мерос ҳали неча-неча авлодлар учун ибрат намунаси бўлиб хизмат қилади.

**Шавкат БОБОЖОНОВ,
Бухоро давлат университети
ўқитувчиси**

НИГОН

МЕҲНАТ МУКОФОТИ — МУЗАФФАРИЯТ



Муваффақият. Бу сўз шунчаки мавҳум тушунча эмас. Бироқ шу кунгача унинг аниқ формуласи ҳам яратилмаган. Тўғри, бугун китоб дўконларида дунёга машҳур Дейл Карнеги, Жо Витале, Адам Жексон, Жим Рон ва бошқа бир қанча психологларнинг шу мавзудаги китоблари талайгина. Қайсидир маънода уларни ўрганиб, муваффақиятга эришиш мумкин. Аммо биргина китоб мутолаасининг ўзи етарли эмас. Биз муваффақият томон қадам-бақадам борамиз.

Орзуни мақсадга айлантириб, қалбада унга эришишдек улкан ишончини шакллантира олсак, демак, муваффақият томон илк қадамни ташлаган бўламиз. Айнан ишонч бизни ҳаракатга ундайди. Ҳаракат эса, иккинчи қадамдир. Бу ҳақда кўп ва хўп гапириш шарт эмас, шунчаки, масъулиятни хис этиш ва ортага қарамаслик керак. Нигоҳ қай томон қаратилса, кўз ўша ерни кўради. Шунинг учун ҳам бир ерда келажакни кутиб ўтириш ярамайди, унга томон юриш лозим.

Биз муваффақият суруридан маст бўлгандагина ўзимизни бахтли ҳисоблаймиз. Бунинг ортида эса, тинимсиз изланиш, меҳнат бор. Дилда тугилган мақсаднинг зафарини кўрмоқ учун ўзимизни меҳнатга чоғлашимиз, эришилажак галабага ишонмоғимиз — муваффақият калити. Бу калит эса, қўлимизда. Унга эришиш йўлида дуч келадиган синовлар биз излаётган музаффарият эшигини топишда тўсиқ бўлмадлиги керак. Бироқ бир ҳақиқат бор: онгимизни хоҳишларимизга бўйсундира олмас эканмиз, мақсаддан чалғитувчи

**МУВАФФАҚИЯТ УЧУН ҲЕЧ ҚАНДАЙ ИЛМИЙ
ФОРМУЛА ШАРТ ЭМАС.
ИНСОНЛАР УНГА МУҲТОЖ ҲАМ ЭМАС.**

фикрлар кўпайиб бораверди. Фикрлар ҳаётимизни бошқаради, деган гап бор. Ростдан ҳам, “мен урдалай олмайман”, “қўлимдан келмайди”, “бунинг иложи йўқ” қабиллидаги жумлалар муваффақиятнинг энг катта душмани. Бошимизда шу каби фикрлар айланиб тураверар экан, кўзланган истикбол томон ҳеч қачон етиб бораолмаймиз. Демак, ҳамма гап ўзимизда.

Дарҳақиқат, муваффақият учун ҳеч қандай илмий формула шарт эмас. Инсонлар унга муҳтож ҳам эмас. Ютуғимиз шундаки, бизнинг мустаҳкам саботимиз ҳамда эътиқодимиз бор. Инсон қачонки шижоат ва ғайрат билан изланса, кидирганини, албатта, топади.

Қадимги юнон файласуфи Сукротнинг олдига бир киши келиб, муваффақиятга эришиш сирини сўради. Сукрот у билан эртага дарё бўйида учрашини ай-

тибди. Кейинги кун у тайинланган жойга борганида Сукрот уни дарё туби томон етаклабди. Қачонки сув уларнинг бўйига тенг келганда Сукрот уни чўқтирибди. Бояги киши қаттиқ ҳаракат қилибди ва ниҳоят, дарё юзига бир амаллаб чиқиб олибди. Сукрот ундан сув остида бўлган пайтда нимани истаганини сўради. У жон-жаҳд билан нафас олишга интилдими, деса, донишманд ўша истак муваффақият сирини эканини айтган экан.

Азиз тенгдошим, бизни истакларимиз ва шунга яраша бажарайтган амалларимиз бахт сари етаклашини унутман! Ана шундангина бизга катта умид ва ишонч билдирган эл-юрт қорига ярайдиган авлод бўламиз.


**Ўрзуғул ЎРИНОВА,
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари
университети талабаси**



KITOB JAVONINGIZGA

Shunday nomlangan qissalar to'plami nasr va nazm- da birday barakali ijod qiladigan Abdulla Ayizovning kitobxonlarga atalgan navbatdagi tuhfası bo'ldi. Adib ko'nglida kechgan, boshidan o'tkazgan voqealarnı yodga olgan ko'yi sizni hayratlantiradi. Asarnı o'qib, qadriyat, or-nomus tushunchalarining mohiyatini chuqur anglaysiz, kishi.

POLVON yig'lagan tun



Muallif o'quvchini or-nomus uchun moldan ham, jondan ham kechadigan polvonlar davrasiga olib kiradi. O'zbek hamisha oriyatini ustun qo'ygan. Dunyoni hayratga solgan, titratgan. Hozir ham shunday. Er yigitlarimiz-u gul qizlarimiz o'ziga qaratilgan har bir gapni jiddiy qabul qiladi.

Asar qahramoni Gulasal lafzizlik qurboniga aylandi. Orqavotrdan: "Gulasalga uylanmayman, sevganim bor", deb aytilgan gap tufayli pokiza va beg'ubor qizning biron aybi bo'lmasa-da, odamlar oldida yuzi shuvut bo'lib qoladi. Yigitning otasi ham: "Elda gap-so'z bo'lgan qizni kelin qilmayman", — deydi.

Abdulla Ayizov mana shunday mish-mishlar insonni bebaxt qilib qo'yishi mumkinligini Sardorning chigal taqdiri orqali ko'rsatib bergan.

Alpkelbat, g'ururi baland polvonni bir umr "nikohsiz tug'ilgan bola" degan taqdir

ta'qib qiladi. Otam deb yurgan inson emas, balki butunlay boshqa, onasining uzoq o'tmishida qolib ketgan Jabbor uning otasi ekanı haqidagi o'rinsiz sha'malardan bezib ketadi. Ko'kragi yer iskamay yurgan polvonning ruhini shu taxlit sindirishga urinishadi. Adib qabul qilingan har bir qaror, qo'yilgan har bir qadam inson taqdirida o'chmas iz qoldirishini asar qahramonla-

rining iztiroblari, quvonchları, sujetdagi kutilmagan voqealar asnosida ochib bergan.

Insonmiz, qalbmiz sevgiga tashna. Adabiyotimizda chin muhabbat haqida kam yozilyotganday. Ammo "Polvon yig'lagan tun"da ana shu tuyg'u oddiy va samimiy ifodalab berilgani uchun ham asar o'quvchining e'tiborini o'ziga tortadi.

Jabbor va Gulasalning qalb-lari sevgi rishtasi bilan bir-biriga bog'landi. Ba'zan ota-onalar farzandiga nisbatan juda talabchan bo'ladi. Oshiqlar mana shunday fe'lining qurboniga aylandi. Hayoti chilparchin bo'lgan Gulasalning yarasiga malham qo'ygan Jabbor qiyofasida ham odamiylik, ham jasorat gavdalana-di. Qiyin ahvolda qolgan ikki yosh qo'chqinlikni so'nggi chora deb bildi.


Afsus, Jabborning umri qisqa ekan, Gulasal yana yolg'iz qoladi. Qismat kimga shafqat qilibdi, deysiz!

El og'ziga elak tutib bo'lar-midi. Yillar o'tib Jabborning tug'ilgan farzand — Sardorga qo'lini bigiz qilib ko'rsatadiganlar topildi. O'tmishdagi qora dog'lar tufayli mashhur polvonning el-ulus oldida boshi egildi. Ammo Sardorning ota-onasi unga xiyonat qilmagandi. Ular bir-birini chindan sevgani sabab shu yo'lni tanlagan. Kech bo'lsa-da, haqiqat qaror topdi. Sardor ota-onasini tushundi, yigitning qalbidagi nafarat o'rmini mehr egalladi...

Aziz kitobxon, "Polvon yig'lagan tun" nomli qissa sizga ham nazur bo'ladi, degan umiddamiz.

Gulandom UMAROVA

"AMIR TEMUR" kriptogrammasi



Ushbu kriptogrammani to'g'ri hal qilsangiz, buyuk bobokalonimiz Amir Temur tuzuklarida qayd etilgan dono o'gitlardan birini bilib olasiz.

1. "Temur tuzuklari" ni o'zbek tiliga tarjima qilgan ulamo — 6, 23, 17, 14, 19, 24, 3.

2. Oltin O'rda hukmdori — 10, 9, 18, 10, 4, 15, 24, 1.

3. Chumchuqsimonlar turkumiga

mansub qora qush — 13, 23, 2, 4, 5, 11, 4, 13.

4. Kichkina qozon — 16, 20, 7, 22, 4.

5. Cho'l yoki tog'larda yo'llar kesishgan joy, karvonsaroy — 8, 4, 19, 16, 4, 2, 12, 21.

So'zlarni topib bo'lgandan so'ng, belgilangan harflar bilan almashirsangiz, maqsadga erishasiz.

Tuzuvchi: Shavkat HIDOYATOV.

PSIXOLOG QABULXONASI

Balog'at davri manzaralari



3-saboq

Sevgi yosh tanlamaydi degan gapni ko'p eshitamiz. Haqiqatan ham shundaymi?

Sevgi-muhabbat — ulug' tuyg'u. U yurak amri bilan yuzaga chiqadi. Shu sabab uni taqiqlashning iloji yo'q. Muhabbat shaxs ichki dunyosining erkin ifodasi. Bu tuyg'uning ulug'vorligi va murakkabligi shundaki, unga biologik, ma'naviy, shaxsiy, ijtimoiy va umumiy holatlar bir nuqtaga to'planadi. Uning ta'siridagi inson o'zida go'zal fe'l-atvorni, xulqni gavdalantrishga urinadi. O'z o'rmda insonning yangi qirralari ochiladi.

Ikki inson o'rtasidagi munosabat mustahkam bo'lishi uchun o'zaro ishonch muhim ahamiyatga ega. Balog'at davrida yoshlar o'zidan ko'ra sevgan insoniga ko'proq ishonadi. Bu hol ko'pincha qizlarda kuzatiladi. Bunga sabab esa, oiladagi munosabatga bog'liq.

Avvalo ota-ona farzandida kechayotgan o'zgarishni tezda payqashi va vaziyatga qarab ish tutishi, bolaning ko'ngliga yo'l topishi kerak. Chunki ular do'st bo'lsa, o'smir tuyg'ularini bema'lol ayta oladi, o'zini yolg'iz his etmaydi.

Kuzatuvi natijasiga ko'ra, o'g'il ham, qiz ham seviz qolsa, birinchi navbatda, onani ogohlantirish kerak. Shu sabab ona o'z psixologi bo'lishi kerak. Farzand onasiga ishonib dardini aytganida esa, volidasi imkon qadar masalani uning foydasiga hal qilishi lozim.

Ya'ni, o'g'il: — Oyi, men bir qizni seviz qoldim. U juda tarbiyali, chiroyli qiz.

Ona: — Xo'sh o'g'lim, kimlarning qizi ekan u?

O'g'il: — Qo'shni mahalladagi usta Olim akaning qizi.

Ona: — Ha, tanidim, onasi kelinyo'ning xolasi.

O'g'il: — Shunday, oyi.

Ona: — Ammo o'g'lim dadang nima der ekan, kelib-kelib usta bilan quda bo'lamanmi, deb jahllari chiqasmikan?

Bola ko'nglidagi gapni aytdimi, uni ruhiy tushkunlikka tushirmaslik kerak. Avvalo, qiz qaysi oiladan ekanini darrov surishtirmaslik lozim. O'smir sinchkov bo'ladi. Ona yuzidagi o'zgarishlarga qarab javobni ilg'aydi. "Otangga u oila yoqmaydi" kabi hozirjavoblik bilan ota-bola munosabatlarini buzib qo'yish mumkin. Agar farzandingiz o'tkinchi tuyg'uga aldanayotganini payqasangiz ham sevganingizni o'zgarishlarga qarab javobni ilg'aydi. "Otangga u oila yoqmaydi" kabi hozirjavoblik bilan ota-bola munosabatlarini buzib qo'yish mumkin. Agar farzandingiz o'tkinchi tuyg'uga aldanayotganini payqasangiz ham sevganingizni o'zgarishlarga qarab javobni ilg'aydi.

Farzandingiz ulg'aygani, sevgidek go'zal tuyg'u bilan yuzlashganidan xursandligingiz so'zingizda ham, yuz-ko'zingizda ham namoyon bo'lsin. Agar unga qat'iy norozilik ekaningizni bildirsangiz, o'smir sizga qasdma-qasd ish tutadi. Shu bois unga oila qurish mas'uliyati, ma'lum yoshgacha bunga hozirlik ko'rib borish kerakligini hamda kelgusida qiyalmasligini uchun o'qib, kash egallashi lozimligini tushuntiring. Va albatta: "Taqdir bo'lsa, shu qizga uylaniraman, ungacha oldingda ko'p ishlar bor, vaqti kelganda bu masalani yana bir bor o'ylab ko'ramiz", qabilidagi javob bilan o'smirmni yuypating. Muhimi, o'smirmni jazolashga urinmang. Bu muammoning yanada chigallashishiga olib keladi.

Quyidagi ranglar orqali yaqin insoningizning ichki olamini bilib oling:

(qizil, qora, oq, sariq, binafsharang, yashil, ko'k). (Ushbu rangli testing javobi bilan "Psixolog qabulxonasi"ning keyingi sonida tanishasiz).

Feruza TOLIPOVA, psixolog

(Loyiha muallifi Ma'mura XO'JAULOVA)

YOSHLIK ILHOMI

MEHR

— Men sovuq qotyapman! Beparvogina qarab qo'ydı ona.

— Sovuq qotyapman!

Qizaloq onasining bir ishorasi bilan yuqoriga, xonasiga chiqib ketdi.

Shu taxlit bir soat o'tdi. Qizaloq sovuqdan qizarib ketgan qo'llarini nafaasi bilan istimoqchi bo'lib charchadi. Xonada yolg'iz qolgani uchun o'ksindi. Hech kimga aytolmayotgan sog'inchi hissi ko'zlaridan sizib chiqaverdi, unisiz kechayotgan bu holatni tashqaridagi kulgu ovozlari bosib ketolmadi. Biroz o'tib, qizaloq zinadan pastga tushdi. Mehmonxonada bir me'yorda yonib turgan kamin ichidagi olov tomon idamladi.

— Qocho, yonimda o'tirma, — dedi ukasi. Qiz xafaqon nigohlari bilan onasiga tikildi.

— Xonangga chiq, — deya o'shirdi o'g'ay ona o'z qizini bag'riga bosib o'tirar ekan. Ko'p o'tmay yuqoriga dildirab o'tirgan qizaloq "Voy, bolam, yomon kuymadingmi?" degan oh-vohlarni eshitdi. Yugurib o'midan turdi-da, yuvinish xonasidan tish pastasini oldi-yu ukasi tomon shoshildi...

Umida SAYLIYEVA

ELON

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Toshkent shahar Kengashi tashabbusi bilan posttaxtimizdagi barcha unumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida "Mustaqillik — mening tasavvurimda" nomli ko'rik-tanlov tashkil etilmoqda. Yoshlarning adabiyot va san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish, iste'dodini yuzaga chiqarish, shuningdek, behabdo me'natimiz — yurtimiz mustaqilligini qadrlashni yanada yuksaltirishga qaratilgan tanlovga iqtidorli o'g'il-qizlarni faol ishtirok etishga chorlaymiz. Ma'lumot uchun telefon: (71) 244-65-17, (71) 244-65-02

JURNALISTIKA SOHASIDA "OLTIN QALAM" XIV MILLIY MUKOFOTI



DIQQAT TANLOV!

haqining 200 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Asosiy mukofotlar: Eng yaxshi jurnalistik material uchun milliy mukofot (televideniye — 1, 2, 3-o'rinlar);

Eng yaxshi jurnalistik material uchun milliy mukofot (radio — 1, 2, 3-o'rinlar);

Eng yaxshi jurnalistik material uchun milliy mukofot (bosma ommaviy axborot vositalari — 1, 2, 3-o'rinlar);

Eng yaxshi jurnalistik material uchun milliy mukofot (Internet-jurnalistika — 1, 2, 3-o'rinlar).

Birinchi o'rinni olgan g'oliblar diplom, "Oltin qalam" ko'krak nishoni, statuetskasi va eng kam ish haqining 160 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Ikkinchi o'rinni olgan g'oliblar diplom, "Oltin qalam" ko'krak nishoni, statuetskasi va eng kam ish haqining 140 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Uchinchi o'rinni olgan g'oliblar diplom, "Oltin qalam" ko'krak nishoni, statuetskasi va eng kam ish haqining 120 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

Rag'batlantiruvchi mukofotlar uchun nominatsiyalar:

Inson huquqlari mavzusidagi eng yaxshi material;

Chet ellik jurnalistning O'zbekiston haqidagi eng yaxshi materiali uchun;

Eng yaxshi fotoreportaj;

Eng yaxshi matbuot xizmati.

Mazkur nominatsiyalar g'oliblari diplom, "Oltin qalam" statuetskasi va eng kam ish haqining 50 barobari miqdorida pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

"Oltin qalam" tanlovi g'oliblarini mukofotlash, shuningdek, uni o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlari O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash "Ilhom" jamoat fondining moliyaviy ko'magida amalga oshiriladi.

Shuningdek, obilly hamkorlar hamda qator xalqaro tashkilotlarning O'zbekistonda vakolatxonalar va elchixonalar ham o'z rag'batlantiruvchi mukofotlarini ta'sis etgan (ilova qilinadi).

Tanlov shartlari:

Tanlovga tele-, radio-, bosma materiallar hamda Internet nashrlarida e'lon qilingan ishlar taqdim etiladi (5 taдан kam bo'lmasligi kerak).

Mukofot bir shaxsga takroran berilmaydi.

Materiallar "Oltin qalam" tanloviga" deb ko'rsatilgan holda quyidagi manzilga yuborilishi lozim: 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. O'zbekiston jurnalistlari ijodiy uyushmasi, 3-qavat.

Telefonlar: (71) 244-64-61; 244-37-87 www.Journalist.uz

"OLTIN QALAM" XIV MILLIY MUKOFOTI UCHUN XALQARO TANLOV DOIRASIDA MILLIY HAMKORLAR TA'SIS ETGAN NOMINATSIYALAR:

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi: "Mehnat munosabatlari yoritilgan eng yaxshi material uchun"; "Ijtimoiy sheriklik mavzusi yoritilgan eng yaxshi material uchun".

O'zbekiston Mustaqil bosma OAV va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi:

"Hududiy yangiliklarni o'ziga xos uslubda bosma va internet nashrlarida yoritgan jurnalist";

"Internet tarmog'ida yurtimizning ijobiy imidjini oshirishga qaratilgan maqolalar tayyorlagan jurnalist";

"Hukumatimiz tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishda olib borilayotgan islohotlarni tahliliy yoritgan jurnalist";

"Davlatimiz tomonidan kam ta'minlangan oilalar uchun amalga oshirilayotgan loyihalarni taqdirlovchi tahliliy maqola".

"Oltin qalam" XIV Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov doirasidagi xalqaro tashkilotlar nominatsiyalari

1. YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi:

1. "Jurnalistning axborot olish imkoniyatlari masalalari";

2. "Jurnalistlarning professional faoliyati himoyasi uchun".

2. Yevropa Ittifoqining O'zbekistonda delegatsiyasi:

1. "O'zbekistonning tashqi savdo siyosati rivoji to'g'risida"gi eng yaxshi material uchun.

2. "Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik yoritilgan eng yaxshi foto yoki videohisobot (blog, video-film yoki boshqa vizual mahsulot)" uchun.

3. Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O'zbekistondagi loyihalari koordinatori ofisi:

"Terrorizmga qarshi kurashda OAVning roli".

4. Amerika Qo'shma Shtatlari elchixonasi:

"Iqtisodiyotni rivojlantirishda Amerika — O'zbekiston munosabatlari yoritilgan eng yaxshi material uchun".

5. Rossiya Federatsiyasi elchixonasi:

Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar rivojiga bag'ishlangan eng yaxshi material uchun.

6. Turkiya Respublikasi elchixonasi:

1. "O'zbekiston va Turkiya o'rtasida investitsiya loyihalarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan eng yaxshi material uchun".

2. "O'zbekiston va Turkiya o'rtasida turizmni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan eng yaxshi material uchun".

3. "Turkiya va turk madaniyati haqidagi eng yaxshi material uchun".

4. "Turkiya tashqi siyosati haqidagi eng yaxshi material uchun".

7. Xitoy Xalq Respublikasi elchixonasi:

1. "O'zbek — Xitoy ikki tomonlama hamkorligi to'g'risidagi eng yaxshi material uchun".

2. "Bir makon — bir yo'l" loyihasi doirasidagi hamkorlik mavzusiga bag'ishlangan eng yaxshi material uchun.

3. Xitoy to'g'risidagi eng yaxshi material uchun.

8. Project HOPE (AQSH):

1. Bosma/Internet OAVda sil kasalligiga qarshi kurash haqidagi eng yaxshi material uchun.

2. Sil kasalligiga qarshi kurash mavzusiga bag'ishlangan eng yaxshi tele/radio material uchun.

3. Sil kasalligiga muhtalo bo'lgan odamlarni kamsitishga qarshi kurash (yoki sil kasalligiga muhtalo bo'lganlarga nisbatan bag'rikenglikni shakllantirish) mavzusidagi material uchun.

9. "Mintaqaviy muloqot" xalqaro davlat tashkiloti (Sloveniya):

"OAVda korrupsiyaga qarshi kurash masalalari eng yaxshi yoritilgan material uchun".

10. DVV International (Germaniya):

"Aholining zait qatlamlarini ijtimoiy va psixologik qo'llab-quvvatlashda fuqarolik jamiyati va OAVning roli" to'g'risidagi material uchun.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi va "Rosatom" davlat korporatsiyasi:

"O'zbekistonning atom energetikasi mavzusi yoritilgan eng yaxshi material uchun".

MUASSIS O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2017-yil 2-avgustda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR Faxriddin KARIMOV TAHRIR HAY'ATI

Mansur Bekmurodov, Begmat Ochilov, Madamin Safarov, Azim Mirzajonov, Mehrnoz Abbosova, Ra'no Shodiyeva, Shodmonqul Salomov, Irina Kochergina — bosh muharrir o'rinbosari ("Молодежь Узбекистана"), Javlon Vafoyev — mas'ul kotib ("Yoshlar ovozi"), Yelena Kalinina — mas'ul kotib ("Молодежь Узбекистана")

Navbatchi Boboravshan GO'ZIDDINOV

Dizayner Xurshid ABDULLAYEV

Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 150-22-74, (71) 233-95-97, (71) 233-79-69 (faks)

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi — 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203 Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-413 Adadi — 21611

Bosilgacha topehrish vaqti — 21.00 Topshirildi — 01.50 O'za yakuni — 01.00

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi — 2 bosma tabaq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203 Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-413 Adadi — 21611

Bosilgacha topehrish vaqti — 21.00 Topshirildi — 01.50 O'za yakuni — 01.00